QARAQALPAQSTAN RESPUBLIKASÍ QOŃÍRAT RAYONÍ HÁKIMINIŃ SHESHIMI

QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASI QO‘NG‘IROT TUMANI HOKIMINING QARORI

2024 - yil 26 - mart 76-13-185-Q/24 Qo‘ng‘irot tumani hokimligi

Tuman mahalliy byudjetning 2024-yil 1-yanvar holatiga aniqlangan erkin qoldiq mablag‘lari hisobidan moliyalashtirish to‘g‘risida

“Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi, “2024-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonunlari hamda “Byudjet kodeksi”ning 119 va 126-moddalariga muvofiq **qaror qabul qilaman:**

1. Tuman hokimining o‘rinbosarlari (Kuchkarov, Mamutov, Ametova, Tajibayev) hamda tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi (M.Sayipnazarov)ning Qo‘ng‘irot tumani mahalliy byudjetining 2024-yil 1-yanvar holatiga aniqlangan erkin qoldiq mablag‘larini sarflash yuzasidan kiritgan takliflari ma’qullansin.

2. Mahalliy byudjetning 2024-yil 1-yanvar holatiga aniqlangan erkin qoldiq mablag‘lari hisobidan moliyalashtiriladigan tadbirlar ro‘yxati ilovaga muvofiq tasdiqlansin va ushbu xarajatlar uchun jami 1 050 000 000 (bir milliard ellik million) so‘m mablag‘ ajratilsin.

3. Tuman hokimligi (Kuchkarov, Mamutov, Ametova, Tajibayev) hamda byudjet tashkilotlari rahbarlari mazkur farmoyish bilan ajratilayotgan mablag‘larni maqsadli sarflanishini ta’minlasin. Bunda, ajratilgan mablag‘lar hisobiga davlat xaridlarini amalga oshirishda narx-navoni haqiqiy bozor qiymatidan kelib chiqib belgilanishiga tuman hokimining tegishli o‘rinbosarlari va rahbarlari shaxsan javobgar etib belgilansin.

4. Belgilab qo‘yilsinki, davlat xaridlarini birja savdolari orqali amalga oshirish natijasida iqtisod qilinadigan mablag‘lar boshqa maqsadlarga ishlatilmaydi va belgilangan tartibda tuman mahalliy byudjetining 2024-yil 1-yanvar holatiga erkin qoldiq mablag‘lari shaxsiy g‘azna hisob raqamiga qayta taqsimlash uchun qaytariladi.

5. Tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi (M.Sayipnazarov) mazkur farmoyishda nazarda tutilgan mablag‘larni belgilangan tartibda tegishli byudjet tashkilotlarining g‘aznachilik hisob raqamlariga ajratilishini ta’minlasin va ajratilgan mablag‘lardan maqsadli foydalanilishi ustidan qat’iy nazorat o‘rnatsin.

6. Xalq deputatlari Qo‘ng‘irot tumani Kengashining kotibiyati (B.Ualibayeva)ga mazkur qarorni ko‘rib chiqish uchun Xalq deputatlari Qo‘ng‘irot tumani Kengashining navbatdagi sessiyasi kun tartibiga kiritish tavsiya etilsin.

7. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o‘rinbosari J.Seytmuratov zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi **B.Madaminov**

Qo‘ng‘irot tuman hokimining
2024-yil 26-martdagi
76-13-185-Q/24-son qaroriga
1-ilova

Qo‘ng‘irot tumani mahalliy byudjetining 2024-yil 1-yanvar holatiga aniqlangan erkin qoldiq mablag‘lari hisobidan moliyalashtiriladigan xarajatlar

RO‘YXATI

№	Moliyalashtiriladigan tadbirlar va xarajatlar yo‘nalishi	Ajratiladigan mablag‘ miqdori	Mablag‘ ajratishga asos	Mablag‘ni qabul qilib oluvchi byudjet tashkiloti va byudjetdan mablag‘ oluvchi nomi	Hisob raqami
1	«Ayollar daftari» ga kiritilgan xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatllash xarajatlari	200 000 000	O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 31-mart kungi 145-sonli qarori	Qo‘ng‘irot tumani hokimligi	23402000300100001010, l/s 1000228603521570139900180003
2	Kam ta’minlangan oilalarni qo‘llab-quvvatllash xarajatlari (“Sahovat va ko‘mak” jamoatchilik fondga mablag‘ ajratish)	50 000 000	Tuman hokimining o‘rinbosari A.Mamutov va “Sahovat va ko’mak” jamoatchilik fondining taklifi	*Qo‘ng‘irot tumani hokimligi	23402000300100001010, l/s 1000228603521570139900180003
3	Tuman HMQ tuzilmalariga xizmat bobida zarur bo‘lgan inventarlarni xarid qilish xarajatlari	134 950 000	Tuman hokimligining 2024-yil 1-mart kungi 01-22/1-sonli majlis bayoni	**Qo‘ng‘irot tumani hokimligi	23402000300100001010, l/s 1000228603521570139900180003
4	«Yashil makon» umummilliy loyihasi doirasida tuman Obodonlashtirish boshqarmasi ta’sischiligida tashkil etilgan «Qo‘ng‘irot-Qashqadaryo istirohat bog‘i» MCHJ balansidagi «Yoshlar saylgohi» hududida daraxt va butalar ekish ishlarini tashkil etish xarajatlari	200 000 000	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 23-noyabrdagi PF-199-son Farmoni va tuman hokimi o‘rinbosari (Kuchkarov) ning taklifi	***Qo‘ng‘irot tumani Obodonlashtirish boshqarmasi	23402000300100001010, l/s 1000228603521570652000840011

№	Moliyalashtiriladigan tadbirlar va xarajatlar yo‘nalishi	Ajratiladigan mablag‘ miqdori	Mablag‘ ajratishga asos	Mablag‘ni qabul qilib oluvchi byudjet tashkiloti va byudjetdan mablag‘ oluvchi nomi	Hisob raqami
5	Tuman Qishloq xo‘jaligi bo‘limiga xizmat bobida zarur bo‘lgan kompyuter va printer xarid qilish xarajatlari	22 000 000	Tuman hokimligining 2024-yil 1-mart kungi 01-23/1-sonli majlis bayoni va tuman Qishloq xo‘jaligi bo‘limining 44-sonli xati	****Qo‘ng‘irot tumani hokimligi	23402000300100001010, l/s 10002286035215701399001 8003
6	BPO markaziga zarur bo‘lgan kompyuter va mebel xarid qilish xarajatlari	146 500 000	Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘ı Kengesining 2024-yil 18-yanvar kungi 01-12/05-09-sonli «Qoraqalpog‘iston Respublikasida 2024-yilda raqamli texnologiyalarni rivojlantirish bo‘yicha» Yo‘l xaritasi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘ı Kengesining 2023-yil 22-may kungi 101-sonli majlis bayoni	Yoshlar ishlari agentligi Qo‘ng‘irot tumani bo‘limi	23402000300100001010, l/s 10002286035215704999622 5002
7	Tuman markazi va tuman markazidan olis hududlarda o‘tkazilgan “8-mart Xalqaro xotin-qizlar bayram” tadbirini tashkil etish bilan bog‘lik xarajatlar	196 717 000	Tuman hokimligining 2024-yil 1-mart kungi 01-21/1-sonli majlis bayoni va tuman hokimi o‘rinbosarlari (Mamutov, Ametova) ning taklifi	Qo‘ng‘irot tumani hokimligi	23402000300100001010, l/s 10002286035215701399001 8003
8	Tuman hokimligiga zarur kompyuter, printer va boshqa inventarlar xarid qilish xarajatlari	71 000 000	Tuman hokimligining 2024-yil 1-mart kungi 01-22/1-sonli majlis bayoni va tuman hokimi o‘rinbosarlari (Kuchkarov, Tajibayev) ning takliflari	Qo‘ng‘irot tumani hokimligi	23402000300100001010, l/s 10002286035215701399001 8003
9	Tuman hokimligi Axborot xizmatiga zarur bo‘lgan mobil-media inventarlarini xarid qilish xarajatlari	28 833 000	Tuman hokimligining 2024-yil 1-mart kungi 01-22/1-sonli majlis bayoni va tuman hokimi o‘rinbosarlari (Mamutov, Ametova) ning takliflari	Qo‘ng‘irot tumani hokimligi	23402000300100001010, l/s 10002286035215701399001 8003

№	Moliyalashtiriladigan tadbirlar va xarajatlar yo‘nalishi	Ajratiladigan mablag‘ miqdori	Mablag‘ ajratishga asos	Mablag‘ni qabul qilib oluvchi byudjet tashkiloti va byudjetdan mablag‘ oluvchi nomi	Hisob raqami
Jami		1 050 000 000	x	x	x

Izoh:

***Qo‘ng‘irot tumani hokimligiga ajratilgan mablag‘ “Sahovat va ko’mak” jamoatchilik fondining hisob-raqamiga o‘tkaziladi.**

**** Ushbu ajratilgan mablag‘lar hisobiga xarid qilinadigan tovar (ish, xizmat)lar tumandagi HMQ tuzilmalari foydalanishi uchun ularning balansda saqlovchisi hisoblangan yuqori turuvchi tashkilotiga beg‘araz topshiriladi.**

***** Qo‘ng‘irot tumani Obodonlashtirish boshqarmasiga ajratilgan mablag‘ "Qo‘ng‘irot-Qashqadaryo istirohat bog‘i" MCHJ hisob-raqamiga o‘tkaziladi.**

****** Ushbu ajratilgan mablag‘lar hisobiga xarid qilinadigan tovar (ish, xizmat)lar tuman Qishloq xo‘jaligi bo‘limiga beg‘araz topshiriladi.**